

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejoyvchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra viloyatimizda 19,6 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiy (30,6 ming birlik) sonidagi ulushi 64,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 15,5 % ga oshdi.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,8 mingdan ortigi kichik biznes sub'ektlari hisoblanib, 2019-yil 1-iyul holatiga ularning ulushi 75,6 % ni tashkil etdi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

**2019-yil 1-iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (41,2 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 7,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 6,1 % ga yetdi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun


Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,5 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,9 % ga teng bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-iyul holatida xizmatlar sohasida 17,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 39,4 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 7,3 %, tashish va saqlash - 5,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,4 %, axborot va aloqa - 3,0 %, boshqa turlarda - 41,0 % korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

**2019-yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-iyun

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-iyul holatiga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2,6 mingga ko'paydi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes sub'ektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 2,4 mingga ko'paydi.

Eng yuqori o'sish savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxona va tashkilotlarda qayd etilib, 20,6 % ni tashkil etdi. Ularning soni 1,4 mingga ko'paydi.

Shu bilan birga, tashish va saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 19,8 % ga oshganligi qayd etilib, 0,2 mingga ortdi.

## 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ko'payishi, ming birlik




# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 757,3 mlrd. so'mga oshib, 4371,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushlar, savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlarda shuningdek, shaxsiy xizmatlar va ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatildi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd.so'm



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi 17,6 % yetib, 2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan hajmi 310,7 mlrd. so'mga oshdi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

|                                                                                        | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % |
|----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|-----------------------------------------------|
| Xizmatlar – jami                                                                       | 4371,1               | 111,6                                         |
| shu jumladan:                                                                          |                      |                                               |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                  | 228,9                | 110,6                                         |
| Moliyaviy xizmatlar                                                                    | 768,9                | 165,9                                         |
| Transport xizmatlari                                                                   | 978,2                | 101,6                                         |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari                                                 | 958,8                | 101,8                                         |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                      | 69,2                 | 104,5                                         |
| Savdo xizmatlari                                                                       | 1441,0               | 104,5                                         |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                  | 138,0                | 107,6                                         |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                            | 155,3                | 102,5                                         |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                 | 67,5                 | 107,6                                         |
| Ijara xizmatlari                                                                       | 98,5                 | 98,9                                          |
| Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                         | 106,4                | 101,1                                         |
| Shaxsiy xizmatlar                                                                      | 188,9                | 101,5                                         |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 28,2                 | 92,6                                          |
| Boshqa xizmatlar                                                                       | 102,1                | 102,6                                         |



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 165,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar (110,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (107,6 %), Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (107,6 %), va savdo xizmatlarida (104,5 %) qayd etildi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 22,8 % ni tashkil etgan.



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1441,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 33,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 201,7 mlrd. so'mga oshdi.



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 82,6 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 228,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'atlari esa 110,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlari katta qismni egallab, uning ulushi 96,8 % ni tashkil etadi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida shuningdek, nashriyot xizmatlari - 1,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,6 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,5 % ni hamda televideniye dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari - 0,3 % ni tashkil etmoqda.

2019-yil yanvar-iyun oylarida

aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy tarkibida eng kam ulushni dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar tashkil etadi. Joriy davrda ularning hajmi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida 0,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 104,5 % ga yetdi. Hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 mlrd.so'mga oshib, 69,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 90,5 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

**2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

|                         | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % |
|-------------------------|----------------------|-----------------------------------------------|
| <b>Andijon viloyati</b> | <b>4371,1</b>        | <b>111,6</b>                                  |
| Shaharlar:              |                      |                                               |
| Andijon                 | 2 042,2              | 115,8                                         |
| Xonobod                 | 54,7                 | 106,0                                         |
| Tumanlar:               |                      |                                               |
| Oltinko'l               | 146,7                | 108,7                                         |
| Andijon                 | 241,9                | 109,0                                         |
| Baliqchi                | 195,4                | 106,6                                         |
| Bo'z                    | 47,3                 | 106,5                                         |
| Buloqboshi              | 120,5                | 107,4                                         |
| Jalaquduq               | 155,3                | 108,1                                         |
| Izboskan                | 193,9                | 108,6                                         |
| Ulug'nor                | 38,9                 | 105,9                                         |
| Qo'rg'ontepa            | 188,0                | 107,7                                         |
| Asaka                   | 286,0                | 109,0                                         |
| Marxamat                | 141,7                | 108,5                                         |
| Shahrixon               | 266,2                | 108,9                                         |
| Paxtaobod               | 155,5                | 108,3                                         |
| Xo'jaobod               | 97,0                 | 107,9                                         |

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (2042,2 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 116,6 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-iyun

Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon tumani (109,0 %), Asaka tumani (109,0 %) va Shahrixon tumanlarida (108,9 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Ulug'nor tumani (105,9 %), Xonobod shahrida (106,0 %) va Bo'z tumanlarida (106,5 %) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Andijon shahri (46,6 %), Asaka (6,5 %), Shahrixon (6,0 %) va Andijon tumanlari (5,5 %) egallaydi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %





# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-iyun

Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Ulug'nor (0,9 %), Bo'z (1,1 %), Xonobod shahriga (1,3 %), va Xo'jaobod tumanlariga (2,2 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1420,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 4691,6 ming so'mdan Ulug'nor tumanida 665,3 ming so'mgacha oraligni tashkil etadi.

## 2019-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm




O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlarning ja'mi hajmi 224,4 ming so'mga oshdi.

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun

2018-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshishi va o'sish sur'atlari



Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Ulug'nor tumani (104,2 %) va Xonobod (104,4 %) shahrida kuzatildi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-82-63